

ishlamayotgan loyihalarni bekor qilish va yangi kreditlar berishni to'xtatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Albatta, davlat qarzini samarali boshqarish davlatning barcha tegishliligi bo'yicha vazirlik va tashkilotlarning faoliyat uyg'unligini ta'minlashni taqozo etadi. Yuqorida biz tomondan samarali boshqarishga doir asosiy jihatlar, davlat boshqaruvining barcha darajalarida qarz siyosatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan qarz majburiyatlarini shakllantirish va boshqarishda ishtirok etishi bilan bir qatorda ularning samaradorligini yanada oshirish bevosita nazorat mexanizmi ishlab chiqilganligiga ham bog'liq. Bizga ma'lumki, O'zbekistonda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030" Strategiyasida "davlat ma'lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali davlat boshqaruvida ma'lumotlarni to'plash va raqamlashtirish uchun kerak bo'lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirish" masalasi alohida qayd etib o'tilgan. Mazkur mexanizmlarni samarali yo'lga qo'yilishi davlat tomonidan jalb qilingan qarz mablag'laridan samarasiz foydalanish, talon-taroj qilish, korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olishda juda muhim hisoblanadi.

AHOLINING MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BYUDJET-SOLIQ TIZIMINI OQILONA BOSHQARISHDAGI USTUVOR MASALALAR

Pulatova Adolat Djaxangirshyevna

*International School of Finance Technology and Science Institute
"Biznes Boshqaruv" kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Moliyaviy savodxonlik fuqarolarning shaxsiy moliyalarini to'g'ri boshqarishi, investitsiya qilish va kreditlash jarayonlarini oqilona yuritishiga yordam beradi. Byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish esa davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy savodxonlik, byudjet-soliq tizimi, soliq siyosati, investitsiya, kreditlash, shaxsiy moliya, iqtisodiy barqarorlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения финансовой грамотности населения и эффективного управления бюджетно-налоговой системой. Финансовая грамотность помогает гражданам правильно управлять личными финансами, инвестировать и рационально использовать кредитные ресурсы. Эффективное управление бюджетно-налоговой системой обеспечивает стабильное развитие экономики государства.

Ключевые слова: Финансовая грамотность, бюджетно-налоговая система, налоговая политика, инвестиции, кредитование, личные финансы, экономическая стабильность.

Annotation. This article analyzes issues related to improving financial literacy among the population and the efficient management of the budget-tax system. Financial literacy helps citizens manage their personal finances correctly, make investments, and handle credit processes wisely. Effective management of the budget-tax system ensures the stable development of the state economy.

Keywords: Financial literacy, budget-tax system, tax policy, investment, lending, personal finance, economic stability.

Kirish Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarish davlatning barqaror rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik fuqarolarning shaxsiy mablag'larini samarali boshqarishi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishi va umumiy iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, soliqlarning to'liq va o'z vaqtida yig'ilishi, byudjet mablag'larining oqilona taqsimlanishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, **"O'zbekiston - 2030" strategiyasi**,¹⁸⁹ **2022-yil 7-martdagi "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror**, shuningdek, **2023-yil 1-yanvardan boshlab yangi tahrirdagi Soliq kodeksining joriy etilishi**¹⁹⁰ ushbu sohadagi islohotlarning muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Mazkur qaror va farmonlar soliq tizimining shaffofligini ta'minlash, soliqlarning soddalashtirilgan tartibda undirilishini yo'lga qo'yish hamda aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha davlat siyosati, byudjet-soliq tizimini optimallashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda ushbu islohotlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri batafsil tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Aholining moliyaviy bilimdonligini oshirish va byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar hamda manbalar sharhi ushbu sohadagi muhim tamoyillar, mavjud muammolar va samarali yechimlarni aniqlashga imkon yaratadi.

Moliyaviy bilim saviyasi xalqaro miqyosda keng tadqiq qilingan bo'lib, Jahon banki (World Bank), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda moliyaviy xabardorlik darajasining oshishi iqtisodiy barqarorlik hamda aholining farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, Lusardi va Mitchell (2014) o'z tadqiqotlarida moliyaviy bilim darajasi past bo'lgan kishilarning ortiqcha qarz yukidan aziyat chekishi ehtimoli yuqoriligini qayd etgan.

O'zbekistonda moliyaviy madaniyatni rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi hamda boshqa moliyaviy

¹⁸⁹ <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

¹⁹⁰ <https://lex.uz/acts/-4674902>

tashkilotlar tomonidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-iyundagi "Aholining moliyaviy bilimini oshirish va bank xizmatlaridan foydalanish darajasini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur sohada muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Xodjayeov (2021) tomonidan olib borilgan izlanishlarda O'zbekistonda byudjet-soliq tizimini isloh qilishning ahamiyati hamda uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan.

Yuqorida keltirilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xabardorlikni oshirish hamda byudjet-soliq tizimini samarali boshqarish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ushbu sohada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish katta dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu izlanish aholining moliyaviy xabardorligini oshirish hamda byudjet-soliq tizimini samarali boshqarishdagi ustuvor jihatlarni o'rganishga qaratilgan.

Moliyaviy xabardorlik va byudjet-soliq tizimi bilan bog'liq ilmiy manbalar, rasmiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu o'rganishlar tadqiqotning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

Aholining moliyaviy bilimi darajasini aniqlash va byudjet-soliq tizimining samaradorligini baholash maqsadida rasmiy statistik ko'rsatkichlar o'rganildi.

Tahlil va natijalar

Aholining moliyaviy bilimi darajasini oshirish jamiyat iqtisodiyotining barqaror taraqqiy etishi, davlat byudjeti hamda soliqlik tizimining samarali yuritilishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda moliyaviy savodxonlikning pastligi nafaqat fuqarolarning daromad va jamg'armalarini noto'g'ri boshqarishiga, balki soliqlik tushumlarining qisqarishiga ham olib kelmoqda. Shu sababli, ushbu muammoni chuqur tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish muhim sanaladi.

Moliyaviy bilimi yetarli darajada rivojlanmagan fuqarolarning soliqlarga bo'lgan munosabati sust bo'ladi.

Soliqlik majburiyatlari haqida yetarli bilimga ega bo'lmagan shaxslar soliqlardan qochishga moyillik ko'rsatadi.

Davlat byudjetiga tushumlarning kamayishi natijasida ijtimoiy dasturlar hamda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

O'tkazilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy bilimi yuqori bo'lgan jamiyatlarda soliqlik tushumlari hajmi ham ortadi. Bu esa davlat tomonidan ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy dasturlarga ajratiladigan mablag'larning ko'payishiga imkon yaratadi.

Moliyaviy ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolar davlat byudjetining shakllanishi va mablag'larning taqsimlanishiga katta qiziqish bilan yondashadilar. Natijada:

Davlat xarajatlari ustidan jamoatchilik nazorati kuchayadi. Byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi ta'minlanib, korrupsiya xavfi kamayadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat moliyasi ochiqqligini ta'minlash va byudjet jarayonlarining shaffofligini oshirish aholining soliq to'lovga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

O'zbekiston soliq tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada isloh qilindi, biroq hali ham ayrim qiyinchiliklar mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

Soliq kodeksidagi murakkab jihatlar kichik biznes vakillari va oddiy fuqarolar tomonidan to'liq tushunilmaydi. Yangi soliqlar yoki soliq stavkalaridagi o'zgarishlar to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan tadbirkorlar noto'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Shu boisdan, soliq tizimini yanada soddalashtirish, uni keng jamoatchilik uchun tushunarli qilish hamda soliqlarni o'z vaqtida to'lashni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish zarur.


Aholining moliyaviy bilimi darajasini oshirish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar, jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar muhim ahamiyatga ega.

Davlat tomonidan tashkil etilgan moliyaviy savodxonlik kurslari, seminar va treninglar aholining soliqlarga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi.

Raqamli texnologiyalar orqali fuqarolarga moliyaviy tushunchalarni yetkazish (mobil ilovalar, onlayn kurslar) samarali natija bermoqda.

Masalan, rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya) aholining moliyaviy xabardorligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston sharoitida ham bunday tajribalarni qo'llash dolzarbdir.

Moliyaviy Savodxonlikning Shaxs va Jamiyatga Ta'siri



1-rasm Moliyaviy bilimga ega bo'lishning shaxsiy va jamiyat miqyosidagi natijalari haqida¹⁹¹

¹⁹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Moliyaviy bilimga ega fuqaro (markaziy tugun) – moliyaviy savodxonligi oshgan shaxs o'zining moliyaviy faoliyatini oqilona boshqarishga qodir bo'ladi.

Individga ta'siri (yashil bloklar) – moliyaviy bilim fuqaroga quyidagicha foyda keltiradi:

- Daromad va xarajatlarini oqilona rejalashtirish
- Soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash
- Jamg'arma va investitsiyalar orqali moliyaviy mustahkamlikka erishish

Jamiyatga ta'siri (qizil bloklar) – moliyaviy savodxonligi oshgan fuqarolar jamiyat iqtisodiyotiga quyidagi yo'nalishlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- Bank tizimi orqali jamg'armalar hajmi ortadi
- Kapital bozorining rivojlanishi tezlashadi
- Iqtisodiy inqirozlarning oldini olish imkoniyati oshadi

Ushbu bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, moliyaviy bilim nafaqat individ darajasida foyda keltiradi, balki umuman jamiyat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Maqolada fuqarolarning moliyaviy bilimi darajasini oshirish hamda byudjet-soliq tizimini samarali boshqarishning dolzarb jihatlari tahlil qilindi. Moliyaviy xabardorligi yuqori bo'lgan jamiyatda fuqarolar o'z moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish, investitsiya qilish va soliqlarga oid qonun-qoidalarga muvofiq qarorlar qabul qilishadi. Bunday yondashuv jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, davlatning fiskal siyosatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Byudjet-soliq tizimining shaffofligi va samarali yuritilishi davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga asos bo'lib, soliqlarni ixtiyoriy to'lash darajasini oshiradi. Aholining moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lsa, soliq tushumlari hajmi ortadi, davlat tomonidan ijtimoiy loyihalar, infratuzilma va ta'lim sohalariga ajratiladigan mablag'lar samarali ishlatiladi.

Ta'lim tizimiga moliyaviy bilimi bo'yicha fanlarni kiritish – Maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlikni oshiruvchi kurslarni joriy etish, talabalar va o'quvchilarni shaxsiy moliya, jamg'arish, kredit va investitsiyalar bo'yicha bilimga ega qilish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalar vositasida moliyaviy ma'lumotlarni yetkazish – Onlayn kurslar, mobil ilovalar, elektron kalkulyatorlar va interaktiv platformalar orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish, aholini soliqlar, kredit olish tartibi, budjet rejalashtirish bo'yicha amaliy bilimlarga ega qilish samarali natija beradi.

Byudjet-soliq tizimini soddalashtirish va ochiqqligini ta'minlash – Soliq tizimini fuqarolar uchun tushunarli va qulay shaklda yuritish, soliq yukini maqbullashtirish, soliq to'lovchilarga axborot beruvchi platformalar yaratish hamda soliq hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Aholi va tadbirkorlar uchun moliyaviy maslahat xizmatlarini rivojlantirish – Fuqarolar va biznes vakillariga soliq qonunchiligi, moliyaviy boshqaruv va byudjet rejalashtirish bo'yicha bepul maslahat beruvchi markazlar tashkil etish. Shu bilan

birga, onlayn chat-botlar va raqamli maslahatchilarni ishga tushirish orqali aholiga tezkor va ishonchli moliyaviy ma'lumot yetkazish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi aholining moliyaviy bilimini oshirishga, byudjet-soliq tizimining samaradorligini yuksaltirishga va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholining davlat moliyaviy boshqaruviga bo'lgan ishonchini oshirish ham muhim jihatlardan biri sanaladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5-44.
2. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*.
3. Stiglitz, J. E. (2012). *The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future*.
4. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65-94.
5. Barro, R. J. (1990). Government Spending in a Simple Model of Endogenous Growth. *Journal of Political Economy*, 98(5), S103-S125.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-iyundagi "Aholining moliyaviy bilimini oshirish va bank xizmatlaridan foydalanish darajasini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

AHOLINI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA BUDJET-SOLIQ SIYOSATIGA STRATEGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

TDIU, Budjet hisobi va g'aznachilik kafedrasi dotsenti, PhD

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi

Byudjet nazorat va g'aznachilik yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisdaholining moliyaviy savodxonligini oshirish va budjet-soliq tizimini oqilona boshqarish muhimligi tadqiq etilgan. Moliyaviy savodxonlik aholi turmush tarzining o'sishida va soliq siyosatining shaffofligini oshirish davlat byudjetining oqilona taqsimlanishida qanday ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu masalalar yuzasidan ilg'or tajribalar va tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, budjet-soliq tizimi, soliq siyosati, iqtisodiy barqarorlik, davlat xarajatlari.

Mamlakat iqtisodiy barqarorligi va aholining farovonligini ta'minlash maqsadida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish va budjet-soliq tizimini oqilona boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali davlat xarajatlarini